Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321117

ta´minlashning ustivor yo´nalishlari´´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Развитие финансовой экосистемы в цифровую эпоху открывает широкие возможности для повышения эффективности банковских операций. Инновационные стратегии, основанные на использовании передовых технологий, позволяют банкам оптимизировать процессы, улучшать качество обслуживания клиентов и создавать новые продукты и услуги. Однако успешная цифровая трансформация требует комплексного подхода, учитывающего не только технологические аспекты, но и вопросы управления рисками, безопасности и развития человеческого капитала.

В заключение можно подчеркнуть, что развитие финансовой экосистемы в условиях цифровой эпохи представляет собой сложный, но крайне важный процесс, связанный с внедрением инновационных технологий, повышением качества банковских операций и созданием новых возможностей для финансовых институтов. Эффективная цифровая трансформация банков требует комплексного подхода, учитывающего не только технологические решения, такие как искусственный интеллект, блокчейн и облачные технологии, но и вопросы управления рисками, безопасности и адаптации человеческого капитала.

Основные стратегии включают автоматизацию процессов, персонализацию услуг и использование больших данных для улучшения взаимодействия с клиентами и повышения качества обслуживания. Вместе с этим необходимо внимание к вопросам кибербезопасности, регуляторным требованиям и этическим аспектам использования технологий.Таким образом, успешное развитие финансовой экосистемы в цифровую эпоху зависит от синергии технологий, компетенций сотрудников и гибкого управления, что позволит банковскому сектору эффективно адаптироваться к вызовам и использовать возможности цифровой трансформации.

**Список использованной литературы:**

1. М.Т.Бутабоев, Цифровая экономика, Фергана, 2024
Ю.И.Грибанов, Цифровая экономика глазами управленца, 2023

## INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETUVCHI OMIL SIFATIDA

**Allayarova Mastura Kudratullayevna**
Guliston davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi,
**Olimova Sabrina Shavkat qizi**
Gulistn davlat universiteti, Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada investitsiyalardan samarali foydalanishni boshqarishda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish omillari va ahamiyati etilgan. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligiga erishish orqali hududlarda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganilgan.

**Tayanch so‘zlar:** investitsiya, erkin iqtisodiy zona, investitsion jozibadorlik, mahalliylashtirish, tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlari, erkin iqtisodiy zonalar boshqaruv tizimini muvofiqlashtirish.



Published: 23.12.2024

**Cite this article:** Allayarova Mastura Kudratullayevna, Olimova Sabrina Shavkat qizi (2024). Investitsiyalardan samarali foydalanish erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etuvchi omil sifatida. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321117

*© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

**Annotation.** This article examines the activities of free economic zones in managing the effective use of investments, the basis and importance of organizing the activities of free economic zones in the context of economic modernization. The factors influencing the organization of free economic zones in the regions through the diversification of production and achieving the competitiveness of national goods in the domestic and foreign markets have been studied.

**Keywords:** investments, free economic zone, investment attractiveness, localization, organizational and economic mechanisms, coordination of the free economic zone management system.

Jahonda xorijiy investitsiyalar hajmi, sifati, qulay shartlardan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda yildan-yilga investitsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan innnovatsion instrumentlarning turli ko‘rinishlari yaratib kelinmoqda. Jahonning rivojlanayotgan mamlakatlarida investitsiyalar samaradorligini oshirishning maqbul mexanizmini izlab topishda nisbatan qisqa vaqt ichida iqtisodiy jihatdan katta natijalarga erishayotganligi ham alohida ahamiyaga ega. Yangi industrial mamlakatlar Gonkon, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiy o‘sish darajasi 10,5 % dan yuqori ko‘rsatkich qayd qilingan davrda mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar salmog‘i yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga nisbatan 35-40 % ni tashkil etgan bo‘lib, ularning katta qismi ichki investitsiyalar hisobiga to‘g‘ri kelgan.

Mamlakatimizga investitsiyalarni jalb qilish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida6 26-maqsad sifatida: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish, investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha, «pastdan-yuqoriga» tamoyili asosida, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vazifalari belgilab berilgan.[154]

Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish uchun etarlicha tashkiliy sharoitlar yaratish eng muhim vazifalar qatoriga kiradi. Bu muhim vazifalarni bajarishda hududlarda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va rivojlantirish muhimdir.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasida erkin iqtisodiy zona mavjud ilg‘or tajriba va investitsiyalarni jalb qilish asosida mamlakatda takrorlaydigan iqtisodiy element vazifasini bajaradiki, bu tushuncha har xil nomlarga va tavsiflarga ega bo‘lib, ularning tub iqtisodiy mohiyati asosan hududlarning qulay savdo-sotiq, bojxona, pul-kredit va moliyaviy imtiyozlar belgilangan iqtisodiy va jug‘rofiy mavqega ega bo‘lgan mintaqa rivojlanishiga qaratilgan ob’ekt sifatida erkin iqtisodiy zona (EIZ) tushunchasini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan “Erkin iqtisodiy zona – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish

[154] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi 2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risidagi farmonida // Lex.uz.

maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir”.[155]

Mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish siyosati samarali olib borish, kapital, vaqt va tashkiliy-iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish orqali iqtisodiyotini yuksaltirish, uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini rag‘batlantirish yo‘li bilan investitsiyalarni faol jalb qilishga va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek “Eng asosiysi, bu islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz kerak. Odamlarimiz etarli daromad topishi uchun eng qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirib, yangi-yangi korxonalar va ish joylarini ko‘paytirishimiz zarur”. [156]

Shu o‘rinda iqtisodiyotni isloh qilish borasida savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishni ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rildi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va uni boshqarish muhim tadbirlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirishda EIZda faoliyat yurituvchi rezidentlarni asosiy faoliyati ko‘lamini oshirishni jadallashtirish muhim hisoblanadi. Erkin iqtisodiy zonalarni boshqarishda zonada faoliyat yurituvchi tadbirkorlar tomonidan ekologik toza ishlab chiqarishganligi uchun qo‘shimcha imtiyozlar berilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Mamlakatda EIZlarda tadbirkorlik faoliyatini yuritmoqchi bo‘lgan tadbirkorlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun hududlar ajratishda EIZ boshqaruv organlarni faoliyatida shaffoflikni ta’minlash mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda zarur omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu o‘rinda respublikamizda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalarni quyidagi jadval bo‘yicha farqlanadi (1-jadval).

**1-jadval**

**O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalarning faoliyat turlari bo‘yicha klassifikatsiyalanishi**

| **Sanoat tarmoqlari bo‘yicha ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalar** | **Farmatsevtik yo‘nalishi bo‘yicha ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalar** | **Turizm va qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalar** |
|---|---|---|
| Navoiy EIZ | Zomin FARM-EIZ | Zomin turistik-rekreatsion EIZ |
| Angren EIZ | Bo‘stonliq EIZ | “Chorvoq” ETZ |
| Jizzax MIZ | Sirdaryo FARM-EIZ | Buxoro-AGRO EIZ |
| Urgut EIZ | Parkent FARM-EI | Qoraqalpoq-AGRO EIZ |
| G‘ijduvon EIZ | Andijon FARM-EIZ | |
| Qo‘qon EIZ | Kosonsoy FARM-EIZ | |
| Hozarasp EIZ | | |
| Nukus EIZ | | |
| Sirdaryo EIZ | | |

[155] O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun ujjatlari to‘plami, 2005 y., 49-50-son

[156] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil.Lex.uz.

Jadvalda ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda sanoatga ixtisoslashgan zonalar soni nisbatan ko‘p bo‘lib (12 ta), farmatsevtik yo‘nalishda ham tashkil etish soni ko‘payib bormoqda (6 ta), tursitik-rekratsion ixtisoslashgan 2ta, qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan 2 ta bo‘lib, ularda mamlakat va chet el investitsiyasini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etishni, eksportni rag‘batlantirish, uning tarkibini yaxshilish, ish bilan bandlikni oshirish, er uchastkasini ijaraga berish, bino-inshoatlar ijarasi, tijorat va xizmatlarni taqdim etishdan keladigan qo‘shimcha valyuta daromadlarini olish ta’minlangan.

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar quyidagi bevosita va bilvosita guruhlarga bo‘linadi:

Bevosita guruhlar – iqtisodiy samaradorlik ya’ni erkin iqtisodiy zona tasarrafiga kiruvchi korxonalarning yangi texnologiya tufayli zamonaviy, raqobatbardosh, sifatli, xaridorgir tovarlar ishlab chiqarishi (xizmat ko‘rsatishi);

Bilvosita guruhlar – raqobatbardoshlik, yangi texnika texnologiya bilan qurollangan korxonalarning o‘zaro raqobatbardoshligini kuchaytirib, boshqa firmalarning ilg‘or texnologiyalarni qo‘llashga, yangi texnologiyalar yaratish uchun izlanishlar olib borishga majbur qilishi. Ular o‘rtasida bog‘liqlik mavjud.

Erkin iqtisodiy zonalar boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tarkibiga quyidagilar ham salmoqli ta’sir ko‘rsatadi:

- zonalar faoliyati uchun er tanlashda investitsiyaviy faoliyat olib borish uchun shart-sharoitlar va infratuzilmaga alohida e’tibor qaratish;
- xorijiy, mahalliy investorlar manfaatlarini e’tiborga olgan holda, imtiyozlar va qulayliklar tizimini hisobga olish;
- investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun va qulay investitsiya muhitini saqlash kafolatining imtiyozlar belgilanganligi;
- hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib zaruriy va ishchi ifratuzilmasini rivojlantirish va uni yaratish uchun moliyalashtirish imkonining mavjudligi;
- erkin iqtisodiy zonalar ma’muriy boshqaruv tizimi o‘ta moslashuvchanligi ta’minlash uchun samarali boshqarish usullari va mexanizmlarini takomillashtirish.

Bugungi kunda mamlakatimizda 23 ta erkin iqtisodiy va 348 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularda umumiy qiymati 2,6 milliard dollarlik 453 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 36 mingga yaqin ish o‘rni yaratilgan. Kichik sanoat zonalarida esa 5 trillion so‘mlik 1 ming 497 ta loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ziyod kishining bandligi ta’minlangan.

Sanoatni innovatsion asosda tashkillashtirish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, ilmiy-texnologik hamda innovatsion tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish bugungi kunning ustuvor vazifasidir. Bu borada yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar, nou-xaularni o‘zlashtirish, korxonalarda innovatsiyalarning joriy qilinishi, texnologiyalar transferini ta’minlash uchun texnopolislar, texnoparklar kabi erkin iqtisodiy hududlar va ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarining barpo qilinishiga yo‘naltirilgan qonunchilikni yaratish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Yirik investitsiya loyihalarini infratuzilma bilan ta’minlash maqsadida 232 milliard so‘m ko‘zda tutilgani, rivojlanishdan ortda qolgan 33 ta tumanda sanoat va biznesni jadal rivojlantirish uchun 264 milliard so‘m ajratilishi ayni muddao bo‘ldi. Bundan buyon biz deputatlar mazkur mablag‘larni ajratilishi va maqsadli ishlatilishi ustidan ta’sirchan parlament va deputatlik nazoratini o‘rnatishimiz lozim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytganda, erkin iqtisodiy zona — bu yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy

raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga faol jalb etish maqsadida tashkil etiladigan hududdir. Uni tuzishdan maqsad eng avvalo, mamlakatni yoki alohida olingan hududni strategik rivojlantirishga doir vazifalarini, ya’ni tashqi savdo, umumiqtisodiy, ijtimoiy, hududiy va ilmiy-texnik masalalarni hal qilishdan iborat bo‘ladi.

**Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida G‘G‘ Lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005 y., 49-50-son

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil.Lex.uz.

4. Bobanazarova J.X.Hududlarda inson kapitalini rivojlantirish masalalari. Inson kapitalni rivojlantirish milliy iqtisodiyot barqarorligi omili. Xalqaro ilmiy amaliy konferentsiya. Toshkent. 2023. 3.05. 293-294

## РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА: КЛЮЧ К УСТОЙЧИВОМУ РОСТУ И ПРОЦВЕТАНИЮ

**Усманова Зулфия Мусаевна**
Старший преподаватель кафедры «Экономика»
Ферганский политехнический институт
zulfiyaxon16.04@mail.ru

**Аннотация**: в статье рассматривается ключевая роль человеческого капитала в обеспечении устойчивого роста и процветания как на уровне организаций, так и в масштабе национальных экономик. Определяются основные факторы развития человеческого капитала, включая образование, здравоохранение, доступ к технологиям, социальную защиту и корпоративную культуру. Приводятся примеры успешных стратегий развития человеческого капитала в разных странах, таких как Финляндия, Южная Корея и Скандинавские государства. Также освещаются вызовы, связанные с инвестициями в человеческий капитал, и их влияние на конкурентоспособность. Делается вывод о том, что развитие человеческого капитала — это долгосрочная стратегия, необходимая для решения современных проблем и построения устойчивого будущего.

**Ключевые слова**: человеческий капитал, инвестиции, опыт стран, образование, обучение здравоохранение.

В настоящее время отдельное внимание на уровне государств уделяется вопросам развития человеческого капитала. Человеческий капитал — это совокупность знаний, навыков, опыта и компетенций, которыми обладают люди, и которые используются для создания экономической, социальной и культурной ценности. Сегодня развитие человеческого капитала является основой устойчивого роста и процветания как отдельных организаций, так и целых государств.

Роль человеческого капитала в современном мире выражается в следующем.

В условиях глобализации, цифровизации и стремительного технологического прогресса конкурентоспособность стран и компаний во многом зависит от уровня их человеческого капитала и Узбекистан не является